

## O'ZBEK SAHNA RAQS LIBOSLARINI TIZIMLASHTIRISH

M25-15 guruhi magistranti D.R. Mahkamova

*O'zbek sahna raqs liboslarini tizimlashtirishdan asosiy maqsad, har bir vohaning kelib chiqish tarixi va ularning har bir vohaga xos bo'lgan raqs turlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan bir hisoblanadi. Sahna raqs liboslarini turlarga va hududlarga bo'lib o'rganar ekanmiz, sahna talablarini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. O'zbek sahna raqs liboslarida asosiy talablar, raqqos va raqqosalarning musiqa ohangiga mos raqsga tushishi, ularning raqsga mos liboslari sahna va kuy talablariga mos kelishi lozim.*

*The aim of systematization of Uzbek stage dresses is to show the history and outcoming of dress from several regions and also to research the types of dancing of several regions. As we are studying the types and regions of outcoming of each dresses, we should know and not forget the rules of stage. The main requirements of Uzbek stage dresses are the measure should go with a music and with a stage dresses.*

Har bir xalqning milliy musiqa merosi shu xalqning milliy xususiyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Milliy musiqa merosi esa shu xalqning paydo bo'lish va shakllanish tarixi jarayonida to'planib boradi. Qaysi xalqning bunday merosi boy bo'lsa, uning tarixi qadimiy hamda ma'naviy jihatdan barkamol ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek xalqining milliy musiqa merosi juda boy va rang-barangdir. Bu merosdan maqomlardan tortib yallalargacha, baxshi shoirlarimiz kuylab o'tgan dostonlardan to lapar va o'lanlargacha, shuningdek operalardan to romanslargacha, teatr va kino san'atidan zamonaviy estrada san'atigacha bo'lgan ko'plab janr va sohalarda yaratilgan minglab musiqiy asarlar o'rin olgan.



Ilmiy nuqtaiy nazardan raqs – bu sa'nat turi bo'lib insonlarni tana plastikasi va harakatlarini ifodalovchi asos hisoblanadi. Makon va zamonda raqs yagona kompozitsiyani tashkil qiladi. Raqs ta'limi musiq va liboslar bilan bog'liq bo'lib va ijro manerasi harakat harakteriga xizmat qiladi. Birgina izoh xalq amaliyoti paydo bo'lishi, kuy va so'zning bir biriga bog'liqligi, asta sekin raqs mustaqil san'atni egallab oldi.

Yurtimizda ham milliy raqs an'analari rivoj topib, shakl va shamoyiliga ega bo'lib ulgurgan va uning negizi uzoq yillik tarixga borib taqaladi. Raqs turlarini, kelib chiqish tarixini o'rganar ekanmiz bizni uzoq insonlar kelib chiqish tarixiga yetaklaydi.

Insoniyat tarixiga nazar solar ekanmiz ko'z oldimizga ibtidoiy jamoa odamlari keladi. Ularning dunyo qarashlari, logikasi hozirgi insonlar dunyo qarashlaridan anchagina farq qiladi. Qadimda odamlar tabiat hodisalariga chuqur ta'sirchanglik bilan qaraganlar va ular tabiat hodisalariga iltijolar keltirib, turli xil raqslar tushib o'z xursandchiliklarini, qayg'uli kunlarini raqslar orqali bayon etkanlar. Ibtidoiy jamoa raqslari judayam yorqin xarakterlarga va hayotiy jarayonlarga boy. Birinchi ibtidoiy jamoa raqslari, eramizdan avvalgi 11-15 asrlarga borib taqaladi. O'sha davrdagi devoriy suratlar arhiologlar tomonidan topilgan nodir asarlarni o'rganilganda, ibtidoiy jamoa tuzmidan boshlab raqs turi rivojlanib kelganligini bayon etadi.

O'sha paytda insonlar yutuq yoki tashvishlarini raqs orqali ijro etkanlar. Masalan, tabiat hodisalaridan yomg'ir yog'ganda, tabiatga shukurona aytib raqsga tushganlar. Ibtidoiy jamoa odamlari asosan guruh bo'lib raqsga tushganlar. O'sha davrlarda musiqa bo'lmagan, qo'llarida chapak chalib yutgan g'alabalarini namoyon etib xursandchilik qilganlar. Ibtidoiy jamoa odamlari, quyosh hudusiga sig'inishni bayon etganlarida aylana shaklida raqsga tushganlar.

Ibtidoiy jamoa tuzmi davrida g'or odamlari turli xil ko'rinishdagi devoriy suratlarini chizganlar. Asosiy devoriy suratlar Sarmishsoy vodiylaridan topilgan. Devoriy suratlariga asoslanib ko'pgina ma'lumotlar olishimiz mumkin. Zamonlar o'tkan sari insoniyat ongi rivojlanib, san'at turi ham takomillashib bordi. Biz O'zbekiston hududlariga nisbatan raqs turlarini o'rganar ekanmiz beshta asosiy hududlarga bo'lib o'rganamiz. Bulardan Toshkent Farg'ona, Samarqand Buxoro, Surxondaryo Qashqadaryo va Xorazm, Qoraqalpoq hududlariga nisbatan raqs turlarini o'rganamiz. Qadimdan o'zbek xalqi raqsga tushishni, turli xil kuy qo'shiqlar aytib xursandchilik qilishni xush ko'rganlar. Raqs liboslari har bir hudud bo'yicha o'rganilar ekan, ularning o'z milliy liboslari,



haga xos milliy bichimlari bir biridan farq qiladi.[1]

XIX asrning oxirlariga kelib mutaxassislar tomonidan o'rganila boshlanganda, o'zbek raqs san'ati — mumtoz va xalq raqslariga yaqqol bo'linganligi kuzatilgan. Asosan hududlarga nisbatan raqs turini, uchta hududda mukammal rivojlangan. Bularndan Buxoro, Farg'ona va Xorazm hududlari kiradi. Bu hududlarning kelib chiqish tarixiga ko'ra o'z milliy liboslari mavjud. Bu milliy liboslar raqs san'atida ham o'z ifodasini topgan.

Masalan, Buxoro raqslarida yengi uzun, trapetsiya ko'ylak, bel qismida esa lozim kiyilgan. Ko'ylak old qismiga bezak sifatida zardo'lik naqshlari bilan bezatilgan peshkurta taqilgan. Ko'ylak yeng qismi va lozim pocha qismi zardo'zlik naqshlari bilan bezatilgan. Bosh kiyimi slindirsimon, usti zardo'zlik naqshlari bilan bezatilgan va ort qismida uzun sharf bilan bant qilingan peshonaband kiyilgan.

Buxoro raqsi – tezkor, sho'x ba'zida sekin raqsalar bilan harakatlanadi. Qo'l harakatlari tezkor va o'ynoqi, oyoqlar tizzalari ba'zida bukilgan, bosh holati tik tutilgan holda raqs ijro etiladi. Buxoro raqsi kuy ohangiga qarab jo'shqin va g'amgin raqsalar ijro etiladi.

Xorazm hududining asosiy milliy liboslari ustki qismi qaviqli cho'pon, ichki ko'ylagi ko'krak burmali va ishtondan iborat bo'lgan. Asosiy raqs liboslari bel qismidan kengaygan bir necha klinli keng ko'ylak bo'lgan. Bosh kiyimi esa tanga taqinchoqlar bilan bezatilgan do'ppi, yon qismida esa pat bilan bezatilgan.


Farg'ona hududida qadimdan chakmon, ko'krak burmali ko'ylak, lozim kiyilgan. Bu qadimiy kostyumlarni raqs liboslarida ham ko'rishimiz mumkin. Toshkent Farg'ona yo'nalishida asosan mumtoz raqsalar ijro etilgan bo'lib, ular ko'krak burmali ko'ylak, chakmon, lozim va bosh kiyimi durra bo'lgan. Old bezaklaridan zebigardon bo'lgan.

Raqsnin kelib chiqish tarixi uchta xonliklarga borib taqaladi. O'sha paytlarda xon va amirlar uchun oqshom ba'zimlarida raqqosalar raqsga tushishi urf bo'lgan. Bunga misol qilib oladigan bo'lsak bir qancha minyatura asarlarini olishimiz mumkin. Masalan "Amir Temur" muzeyidagi bir qancha devoriy minyatura asarlarini olishimiz mumkin. Bu minyatura asarlarida podishoxlar va saroy ayomlari, oliy toifadagi vazirlarni ba'zim qilishyapganligi va raqqosalar raqsga tushib kechani o'tkazishyapganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu sababdan ham o'zbek raqslari uchta — Buxoro, Farg'ona va Xorazm maktablariga bo'linadi. Har bir maktab raqsalarining sur'at vaznlari va nazokat mutanosibligi tizimlari turfa tarzda bo'ladi, shuningdek, musiqaga munosabati ham o'ziga xosdir. O'zbek ayollar yakka raqslari XX asrning boshlariga kelib zamonaviy ko'rinish ola boshladi. Bu endi sahnaning paydo bo'lishi va u qo'yadigan talablar bilan bog'liq edi. Raqs san'ati ustalari endi raqsalarini sahnalashtira boshladilar, ommaviy raqs kompozitsiyalarini yaratdilar. Raqsalarini sahnaga qo'yuvchi, uning mumtoz nusxasini yaratuvchi san'atkorlar — xoreograflar paydo bo'ldi. Usta Olim Komilov, Yusuf qiziq Shakarjonov, Ota Xo'ja Eshon, ularning shogirdi va izdoshi — Tamaraxonim xalq orasidan chiqqan ana shunday ilk xoreograflardandir.

O'zbek raqs san'atining rivojida Mukarrama Turg'unboyevaning xizmati beqiyosdir. Bu san'atkor xalq va mumtoz raqsalarini asrabavaylash bilan birga, ularni zamonaviy mazmun va shakl bilan to'ldirdi. Bo'lg'usi raqqos va raqqosalarini tayyorlashda bu ishning ahamiyati bebaho ekanligi ham hisobga olindi. Bu zahmatli ishni ushbu kitobning muallifi o'z zimmasiga oldi va o'ndan ortiq: «Farg'ona raqslari», «Buxoro raqslari», «O'zbek raqslari» kabi qo'llanmalar yaratdi. «O'zbek ayollar yakka raqslari» kitobi madaniyat, teatr san'ati, xoreografiya bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari hamda xususiy studiyalar uchun qo'llanma sifatida yozilgan. Bu raqsalarini asosan Mukarrama Turg'unboyeva sahnalashtirgan. [2]

Bu san'atkor xalq va mumtoz raqsalarini asrabavaylash bilan birga, ularni zamonaviy mazmun va shakl bilan to'ldirdi. Uning sa'yi harakatining mantiqli davomi sifatida 1957-yilda o'zbek madaniyati va san'atida o'chmas iz qoldirgan «Bahor» ansambli tuzildi. Bu san'atkor xalq va mumtoz raqsalarini asrabavaylash bilan birga, ularni zamonaviy mazmun va shakl bilan to'ldirdi. Ansamblda Mukarrama Turg'unboyeva qo'ygan raqsalar haqiqiy san'at nafasi ufurib turadigan, badiiy yuksak, betakror jilolarga boy asarlardir. Raqs turlari, ko'rinishlari azaldan hududlarga nisbatan bo'lingan. Buxoro - Samarqand, Toshkent- Farg'ona, Xorazm hududlariga nisbatan bir necha ko'rinishlari mavjud. Masalan bu hududlarda mumtoz, xalq raqsi, raqs turlariga bo'lingan. Har bir hududda raqs turi o'z nomi bilan nomlanadi.



### **Hududlar bo'yicha o'zbek sahna raqs liboslarini tizimlashtirish.**

Masalan Toshkent –Farg'ona hududlarida “Maqom”, “Xalq raqsi” va “Raqs” yo'nalishi bo'lgan. Bu yo'nalishlar yana bir necha turlarga bo'lingan. Buxoro va Xorazm hududlarida ham shu yo'nalishlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rivoj topa boshladi. Qolgan hududlar esa bu uch hudud yo'nalishi bo'yicha, raqs yo'nalishini shakillantirganlar. Hozirgi kunda sahna raqs liboslari turlari bo'yicha bir necha qismga bo'linadi. Masalan estrada, maqom, xalq raqsi (folklyor), balet, sport raqsi va bir qancha raqs turlariga bo'linadi. Bulardan estrada yo'nalishi bo'yicha rasqlar, faqtgina musiqa ohangiga va ma'no mazmuniga ko'ra raqs ijrolari va liboslar yaratiladi. Xalq raqsalarida asosan o'zlarining har bir hududga mos milliy liboslari bilan, xalq sayillarida ijro etishadi. Balet yo'nalishida ham o'zlarining mahsus liboslari bilan, balet raqsini ijro etishadi. Bugungi kunda raqs san'atisiz hayotimizni tassavur eta olmaymiz. Har bir tadbirlarimiz raqs va kuy, qo'shiqlarsiz qizg'in o'tmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sahna raqs liboslari estetik tomondan did bilan tanlanishi va musiqa ohangiga mos libos bo'lishi kerak. Har bir sahna libosi, sahna talablariga javob berishi lozim. Shundagina raqqosa libosi ham musiqa ohangiga va raqs ijrosiga mos bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

1. L.Avdeyeva. O'zbek milliy raqsi tarixidan. Toshkent-2001.
2. Mukarrama Turg'uboyeva raqsarlari. L.Avdeyeva, 1989.G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti.